

HOMILADORLIK DAVRIDA PARVOZLAR

2025 7 Oktabr

Aviakompaniyamiz aviaqatnovlarida homilador ayollar homiladorlik davrida quyidagi shartlar va muddatlarda homiladorlik paytida qarshi ko'rsatmalar va asoratlar bo'limganda parvozlarga qo'yiladi:

	1 farzand kutilayotgan bo'lsa	1tadan ko'proq farzand kutilayotgan bo'lsa
1-31 hafta	Parvozga ruxsat etiladi	Parvozga ruxsat etiladi
32-35 hafta	Parvozga ruxsat etiladi	Parvozga ruxsat etilmaydi
35 haftadan ko'proq	Parvozga ruxsat etilmaydi	Parvozga ruxsat etilmaydi

Aviaqatnovgaro'yxatdan o'tishda bo'lajak ona homiladorlik muddatini va bir homilali yoki ko'p homilali homiladorlik mavjudligini tasdiqlovchi hujjatni taqdim etishi kerak.

Homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq bo'lgan bo'lajak onalar ro'yxatdan o'tish ustunida aviakompaniya agenti yoki vakiliga shifokor tomonidan imzolangan va parvozga qarshi ko'rsatmalar yo'qligi to'g'risidagi ishonchli ma'lumotlarni o'z ichiga olgan haqiqiy hujjatni (ma'lumotnomha, tibbiy daftarcha, skrining/ko'rik, IXG va ultratovush tekshiruvi natijalari bo'yicha akusher-ginekolog xulosasi va boshqalar) taqdim etishlari kerak.

Bunday hujjat chiptada ko'rsatilgan yo'nalishning birinchi uchastkasida uchib ketish sanasidan ko'pi bilan 7 kun oldin rasmiylashtirilishi kerak. Tashish yo'nalishining qaytish/keyingi uchastkalarida taqdim etish uchun bunday hujjatning umumiyl amal qilish muddati – u rasmiylashtirilgan sanadan boshlab 30 kundan oshmasligi kerak.

Jadvalda ko'rsatilgan parvozga ruxsat berish muddatlari oshib ketgan taqdirda, homiladorlikning normal kechishi va asoratlar yo'qligini tasdiqlovchi haqiqiy tibbiy hujjatlar mavjud bo'lган taqdirda ham homilador ayollar Aksiyadorlik jamiyatni aviaqatnovlariga qo'yilmaydi.

Bo'lajak onalar uchun sayohat paytida o'zlarini xavfsiz va qulay his qilishlariga yordam beradigan bir nechta maslahatlar:

- Homiladorlik davrida samolyotda sayohat qilish uchun eng maqbul vaqt ikkinchi trimestr, ya'ni 13-28 haftalik davr hisoblanadi. Agar parvoz homiladorlikning keying bosqichlarida rejalashtirilgan bo'lsa, boradigan manzilingizda tibbiy yordam olish uchun qayerga murojaat qilishingiz mumkinligini oldindan o'ylab qo'ying. Ba'zi xorijiy sayohatlar uchun turistik tibbiy sug'urta rasmiylashtirish mumkin.
- Parvozdan oldin shifokoringizga uchrashing va parvoz vaqtidagi xatti-harakatlar bo'yicha tavsiyalar oling. Shuni yodda tutingki, agar yo'lovchining jismoniy holati uning xavfsizligiga tahdid solsa, ekipajning xizmat majburiyatlarini bajarishiga to'sqinlik qilsa, shuningdek, parvozni davomida yo'lovchining o'zi va atrofdagilar uchun bartaraf etib bo'lmaydigan noqulaylik va xavf tug'dirsa, aviakompaniya uni tashishni rad etishi mumkin.
- Turishingiz oson bo'lishi uchun yo'lak yonidagi joylarni tanlang. Oyoqlar shishishining oldini olish uchun, ayniqsa uzoq masofali parvozlar paytida, muntazam ravishda o'rningizdan turing va yuring.
- Uzoq parvozlar uchun oyoqlar uchun kengaytirilgan joylarni tanlang yoki biznes-klass salonidan joy xarid qiling. Oyoqlar uchun qo'shimcha joy tufayli siz ularning holatini o'zgartirib turishingiz mumkin bo'ladi.
- Iloji bo'lsa, hamrohlar bilan sayohat qiling.
- Parvoz davomida ko'p suv iching va suvsizlanishga olib keladigan ichimliklardan (choy, qahva) tiyiling.
- Barcha tibbiy hujjatlariningizni o'zingiz bilan olishni unutmang. Agar siz chet elga sayohat qilayotgan bo'lsangiz, ushbu hujjatlarni ingliz tiliga yoki boriladigan mamlakatda tushunarli bo'lган boshqa tilga tarjima qiling.

Yangi tug'ilgan chaqaloqlarni tashishga qabul qilish

Sog'lom tug'ilgan chaqaloqlar kamida 7 kunlik bo'lganidan so'ng tashishga ruxsat etiladi. Tug'ilganiga 7 kun bo'lgan yangi tug'ilgan chaqaloqlar, shuningdek, sun'iy nafas oldirish uchun mo'ljallangan inkubator yoki maxsus qutilarda (bokslarda) tashilayotgan bolalar Aksiyadorlik jamiyati aviaqatnovlarida tashishga qabul qilinmaydi.